

SHAYBONIYNOMA

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

tarix ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Samatova Sabrina samadovasabrina331@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada Shayboniynoma asaridagi ijtimoiy terminlar tahlili va asarlaridagi talqinlar, ularning ma'nolari yoritiladi asarlaridagi talqinlar, ularning elementlari tushuntiriladi.

Kalit sózlar: Bahrul xudo, mutasavvuflar, manbalar, urush harakatlari, milliy tatabbular, talqin, tavsif, tahlil.

Kirish: Shayboniynoma — o'zbek xoni Muhammad Shayboniy tarixi to'g'risida tarixiyjangnoma doston. O'zbek tarixchisi va shoiri, Muxammad Solihning asari. Turkiy tilda (chig'atoy yoki eski o'zbek tilida) yozilgan. Asar 1506—1507-yillarda yozilgan. Doston Muhammad Shayboniyning harbiy yurishlari tasviriga bag'ishlangan. Shayboniynoma 8902 misradan iborat bo'lib, 76 bobdan tashkil topgan. 16 bob dostonning muqaddimasi, shundan 1—3-boblar hamd va na'tlardir. 4-bob so'z ta'rifiga, 5—14-boblar Shayboniynonning tavsif va ta'rifiga bag'ishlangan; 15-bob esa „Kitob nazmining sababi“ bayonidadir. 16-bob Mullo Abdurahim haqida. Asarning syujeti — asosiy qismi 17-bobdan boshlanadi. Keyingi boblarda 1499—1500; 1505—1506-yillarda ro'y bergan tarixiy voqealar xronologik izchillikda bayon etilgan[1]. Dostonda XVI asrning boshlaridagi Markaziy Osiyo xalqlarining turmush tarzi, kasb-kori, harbiy hunariga doir qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. Dostonda Sulton Mahmud, Temur Sulton, Bobur, Husayn Boyqaro, Boqi Tarxon, Sulton Ali, Badiuzzamon singari o'nlab tarixiy siymolar ham tasvirlangan. Asosiy qism Shayboniynoma asaridagi ijtimoiy terminlar hozir uning qabri boshqa Shayboniylar bilan ko'chirilib Registonda Sherdor va Tillokori madrasalari orasiga qo'yilgan. Shayboniynonning she'rlar devoni mavjud. U Turkiyada saqlanadi. Bu devonga asoslanib chet ellik o'zbek olimi Temur Xo'ja o'g'li Shayboniynon haqida o'tgan asr 70-yillari boshida

dissertatsiya yozgan. 200 sahifalik bu ishda Shayboniyxon hayot yo'li yoritilib, g'azallari va «Bahrul hudo» nomli masnaviysi tahlil etilgan. Bundan tashqari, Shayboniyxonning o'g'li Temur Sultonga atab yozgan pand-nasihat xarakteridagi asari ham mavjud. Bir qator olimlar, jumladan, professor R.G.Mukminova mashhur tarixiy asar «Tavorixi guzidai nusratnoma»ning yaratilishida Shayboniyxonning ham xizmati bor, deb bilishadi. Muallifi noma'lum bu asar hozir Shayboniyxonga nisbat berilmoqda. Shayboniyxon shoir, olim va mutasavvuflarga g'amxo'rlik qilgan, o'ziga yaqinlashtirib, katta-katta mansablar bergan. Jumladan, Muhammad Soleh, Binoiy, Abdurahim Sadr va boshqalar bunga misol bo'la oladi. Shayboniyxon qator asarlarning fors va mo'g'ul tillaridan turkiyga tarjima qilinishiga ham sabab bo'lgan. Shayboniyxonning devoni hozircha yagona nusxada bo'lib u ham, aytilganidek Turkiyadadir. U haqdagi ma'lumotlarda devon asosan g'azal, ruboiy, tuyuq, fard, masnaviy kabi janrlardagi she'rlardan iboratligi qayd qilinadi. Shuningdek, Shayboniyxon she'rlaridan namunalar Hasan Xoja Nisoriyning «Muzakkir-ul ahbob» asarida ham mavjud. Jumladan, mashhur shayx Najmiddin Kubro vafotiga doir tarixini keltirib, yaxshi aytgan, deydi: Bobur shariatidagi asl turkiy so'zlar Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr, uning hayot hamda ijod yo'li haqidagi dastlabki ma'lumotlar o'sha zamon va undan keyingi yillarda yozilgan manbalarda uchrasada, ijodini ilmiy tomondan tadqiq etish, asarlarini nashr ettirish ishlari, asosan, XX asr boshlaridan amalga oshirila boshlangan. Zahiriddin Muhammad Bobur yashagan davr va o'sha paytdagi ijtimoiysiyosiy vaziyatning turkiy xalqlar adabiyotida ifoda etilishi haqida so'z yuritilganda, dastavval, Sayfi Chalabiy (1582-1583 yillarda vafot etgan) "Sayohatnoma" sini qayd etish lozim. Hindiston, Xitoy bo'ylab qilgan safar taassurotlari asosida bitilgan "Sayohatnoma" Turkiya sultoni Murod III ga bag'ishlagan. Asarda, asosan, XVI asrning birinchi yarmida Bobur va Shayboniylar o'rtasida kechgan urush harakatlari, shuningdek, Boburning Shayboniy Ubaydullaxonga yo'llagan maktubi hamda uning Hindistonni egallashidan to Humoyun davrigacha bo'lgan Hindiston tarixi tasvirlanadi. Ammo Bobur ijodi haqida "Sayohatnoma" da fikr

yuritilmaydi. Qardosh xalqlar adabiyotida Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarini o'rganish, ilmiy akademik va ommaviy nashrlarini e'lon qilish 1915 yillarga to'g'ri keladi. Shunday qilib turkiy xalqlar adabiyoti tarixida Bobur Mirzo ijodiga doir dastlabki ilmiy nashrlik ishlari turkiyalik olim F.Ko'prulu tomonidan amalga oshirilgan. Istanbulda shoir asarlari qo'lyozma nusxasini topishga musharraf bo'lgan olim bu qo'lyozma haqida ma'lumot beradi, shu asosda 1915 yilda "Milliy tatabbular" majmuasining 2, 3 va 5-sonlarida "Boburshohning she'rlari" nomi bilan shoirning ayni davrga qadar ma'lum bo'lmagan she'rlarini chop ettirib, Turkiyada boburshunoslik ilmiga asos soladi. F.Ko'pruluning ushbu ishlari boburshunoslik tarixida ingliz sharqshunosi D.Rossning shoir she'riyati borasida amalga oshirgan ilk izlanishlaridan keyingi o'ziga xos tadqiqot hisoblanadi. Xo'sh, Vamberi «Shayboniynoma»ni nega tarjima qildi? Bizningcha, doston Vamberini tarixiy asar sifatida ko'proq qiziqtirgan. U XV asr oxiri va XVI asr boshlaridagi O'rta Osiyo tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, madaniyatini o'rganish borasida «Shayboniynoma»ning ahamiyatini yuqori baholaydi. Shuning uchun ham u asar tarjimasiga bejiz qo'l urgan emas. Vamberining o'zi bu haqda shunday deydi: Maqsadim nemis tiliga ag'daruvchi tarjimon bo'lish emas, Markaziy Osiyoning turkiy adabiyotidan... biror-bir asarni tarixchilar, etnograflar va turkologlarga yordam berish uchun umumiy mazmunga yaqinroq keltirib tarjima qilish edi.» Vamberi tarjimasining ilmiy qimmatini ta'kidlagan holda, uning badiiy jihati to'g'risida ham gapirish zarur. Yuqorida qayd etganimizdek, mazkur ish garchi, tom ma'noda badiiy tarjima bo'lmasa-da, u o'z davridagi adabiy-madaniy aloqalar uchun katta ahamiyat kasb etgan. Xulosa Xulosa qilib aytganda, "Shayboniynoma asaridagi siyosiy-ijtimoiy terminlar tahlili, umuman olganda anchagina ma'noga ega. Muhammad Shayboniydan nafaqat she'riy devon, shu bilan birga diniy mazmundagi «Bahr ul-ho'do» nomli doston, o'g'li Temur sultonga atab yozgan pand-nasihatlardan iborat kitob yozgan, demak, hayoti beto'xtov jangu jadal ichida kechganiga qaramay katta ma'rifiy meros qoldirgan inson edi. Ishonchim komilki, Hazrat Mir Alisher Navoiy xonning «Devoni», dostonu hikmatnomasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lganda, bu asarlarga munosib baho bergan bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Sharq yulduzi" jurnali, 1984 yil, 2-son.
2. Dasuqiy M. Imom Muhammad ibn Hasan Shayboniy va uning islom fiqhidagi o'rni.—Doha: "Dor assaqofa", 1987. B. 330.
3. A.Madrimov "Manbashunoslik"-2007
4. Muhammad Solih "Shayboniynoma" asari T-1995